

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ZIGMUND FREYD
(1856-1939)

Mening dunyom befarqlik
ummonida suzib yuruvchi
kichik og'riq oroli!

2022

MAY

№40



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
12-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-12**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-12**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 40-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 12 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6. Журналистика

Тошбоева Барноҳон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

1. Bo‘riboeva Dilraboхon Norboy qizi	
CHIZMACHILIK FANIDA O‘QUVCHILARGA CHIZMANI O‘QISH VA BAJARISHNI O‘RGATISH	7
2. Bositxon Yusupov	
HAYVIY ASARLARDA XARAKTER YARATISHNING BADIY OMILLARI	9



МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

CHIZMACHILIK FANIDA O'QUVCHILARGA CHIZMANI O'QISH VA BAJARISHNI O'RGATISH

Bo'riboeva Dilraxon Norboy qizi

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi.

dilraxonnoriboyeva@gmail.com +99899 4713128.

Guliston davlat universiteti 3-bosqich talabasi

G'anieva Muhabbat G'ayrat qizi

+998904009755

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarning chizmachilik fanidan bilim ko'nikmasini yanada oshirish, chizmachilik standartlarining talablariga asosan buyumning chizmasini mustaqil tuzishi va uni to'g'ri o'qishi, nazariy va amaliy vazifalarini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb, muhim masalalar yoritilgan.

Kalit so'zi: chizma tuzishning nazariy asoslari, aksonometrik proyeksiyalar, tasavvur ko'nikma, fazoviy tasavvurlarini shakllantirish.

Chizmachilikni o'qitish jarayonini uning hamma komponentlari bilan bog'liqlikda ko'riladi, ya'ni kursning mazmuni uning masalalari bilan o'qitish metodlari uning mazmuni bilan o'qish jarayonini jihozlash va tashkil qilish uning mazmuni va metodlari bilan qurilish zarur. Chizmachilik metodika pedagogika ilmining bir shaxobchasi sifatida psixologiya bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki, chizmachilik o'qitish jarayonini takomillashtirishda injenerlik va pedagogik psixologiya qonuniyatlariga asoslanadi. Bular idrok qilish, o'zlashtirish, eslab qolish, kuzatuvchanlikni va fazoviy tafakkurini rivojlantirish, fazoviy shakllar bo'yicha tasavvurini shakllantirish lozim. Chizmachilik o'quv ishlari yo'llarini shakllantirish jarayonini tekshirish bilan bir qator o'quvchilarning grafik ishlarni bajarish jarayonidagi harakat malakalarining shakllanishiga jarayonini tekshirish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim turlarining barchasini isloh qilish va qayta qurish amalga oshirilayotgan mamlakatimizda har bir fan, shu jumladan, chizmachilikdan chuqur nazariy va amaliy bo'limlarga ega bo'lgan yosh kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Chizmachilikka oid bilimlarni muvaffaqiyat bilan egallashning asosiy shartlaridan biri grafik savodxonlik ya'ni chizmalar chizish va uni o'qiy bilishdir. Chizmachilik fanida mashqlar bajarishda inson tafakkurining eng asosiy sifati hisoblanmish fazoviy tasavvuri shakllanadi. O'quv predmetlardan birortasi ham o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini chizmachilikdek rivojlantira olmaydi. Chizmachilik darslarida o'quvchilarning grafik savodxonligi mustaqil mashqlar bajarish bilan rivojlantiriladi. Chizmalarni o'qishni o'rgatishda o'quvchilarning fazoviy tushunchalari va fazoviy tasavvurlarini o'stirishda fikrlash qobiliyatlarini real detallarning geometrik shakllari va konstruksiyasini kuzatish, taqqoslash va tahlil qilish ularning fazoviy vaziyatlarini o'rganish hamda kompetentlik o'quvlarini o'stirish talab qilinadi. Chizmalarni to'g'ri chizish usullari, shuningdek chizma xo'jaligini barcha sohasining to'g'ri tashkil qilish haqidagi fan “Chizmachilik” deyiladi. Chizmachilikdagi turli geometrik yasashlarini esa “Geometrik chizmachilik”da, narsalarning tekislikdagi tasvirini ya'ni proyeksiyasini yasash usullari “Proyeksiyon chizmachilik”da o'rganiladi. Mashina va uning mexanizmlari, ularning tashkil qilguvchi tugun va detallar chizmalari mashinasozlik chizmalariga kiradi. Bino, ko'prik, to'g'on, kanal va mudofaa inshootlarini qurishda foydalaniladigan chizmalar “Muhandislik qurilish” chizmalari deyiladi. Chizmachilik fanining maqsadi model, detal va buyumlarning tekislikdagi ko'rinish ortogonal proyeksiyalarini taxt qilish va ularni o'qish qoidalarini o'quvchi va talabalarga o'rgatishdan iborat. Chizma bu qayta tiklash xususiyatiga ega bo'lgan konstruktorlik hujjatidir. Ya'ni bajariladigan chizmadagi ma'lumotlar orqali buyumning asli qanday ekanligi to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishi taminlanadi. Chizmachilikda model va detallarning ko'rinishlarini va aksonometrik proyeksiyalarini bajarish qonuniyatlari, qirqimi, bosh plani hamda o'qish qoidalari, qurilish ishlarining chizmalarini taxt



qilish qoidalarini o'rganiladi. Chizmachilikni endi boshlagan o'quvchilarda chizmani bajarishda katta harakat kuchi talab qilinadi. Shuning uchun chizmani bajarish vaqtidagi o'quvchining harakat usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilarning grafikaviy tayyorgarligini takomillashuvi so'nggi yillarda olgan surilgan ilg'or g'oyalar asosida ta'limni qayta qurishning qanchalik tez va muvaffaqiyatli amalga oshirishiga bog'liqdir. O'quvchilarning aqliy faoliyatini aktivlash, grafik ishlar ikki tomondan ta'sir qiladi. Bir tomondan, o'quvchilarning tasviriy tafakkurning rivojlanishiga, ikkinchi tomondan esa mantiqiy tafakkurining rivojlanishiga bog'liqdir. Chizmachilik o'qitish jarayonida o'quvchilarning tasviriy tafakkurining va fazoviy tasavvurlarining rivojlanishiga ahamiyat bermoqda. Mantiqiy tafakkurning rivojlantirish, tasavvurlarning turli xil ko'rinishlarini, har xil buyumlarni, buyumlar bilan tasvirlarni va hokazo, ularning muhim bo'lmagan belgilarini ajratish va qarama-qarshi asosida taqqoslash usullari, yangi materialni bayon qilishda indukdiya bilan birlashtirish masalalari ustida ishlashga to'g'ri keladi. Fazoviy shakllarni tasavvur qilishning yetarli darajada rivojlanmaganligi tufayli oily texnika o'quv yurtlariga kirgan o'quvchilarni o'qitish va ularning o'rgatish ancha murakkabdir. Chizmachilik darslarida fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish quyidagi mazmunda bo'lishi mumkin. Birinchidan, biror buyumning chizmasini yasashga doir va uning berilgan chizmasini o'qishga doir topshiriqni bajarishda ularga tanish bo'lgan buyumning geometrik shaklining fikran aniq tasavvur qila olish qobiliyatini rivojlantirishimiz kerak. Aksonometrik proyeksiyalar o'qitishda proyeksiyalash usullarini o'rganish va o'quvchilarni tasavvurlarini rivojlantirishdan iboratdir. Yaqqol tasvirlar aksonometrik chizmalarni va texnik rasmlarni o'rganish va bajarishni parallel ravishda o'rgatishimiz lozim. Har bir darsning mazmunini aniqlashda o'quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olish va tushunarli qilib, fanning yangi taraqqiyotiga mos va uning asosiy mazmuniga to'g'ri kelmagan materialni o'rgatish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Umarxo'jayev, „Texnikaviy grafika asoslari“- T.: “O'qituvchi” 1996 yil.
2. Qirg'izboyev Yu. va boshqalar „ Mashinasozlik chizmachiligi kursi-T. „O'qituvchi” 1981 yil.
3. I.Rahmonov, A.Valiyev Chizmachilik (chizmachilik fanida konstruktsiyalash asoslari). T.: „ Voris- nashriyoti”, 2011 yil.
4. Rahmonov I, Abdurahmonov A. Chizmachilikdan ma'lumotnoma –T.: “A.Navoiy nomidagi milliy kutubxona nashriyoti” 2005 yil.



HAJVIY ASARLARDA XARAKTER YARATISHNING BADIY OMILLARI

Bositxon Yusupov

O‘zbekiston davlat san’at va
madaniyat instituti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada sahnaviy xarakter yaratishda hajviy asarlar ustida ishlash, komik shaxslar obrazini yaratishda xarakterning badiiy ahamiyati yoritilgan. “Tobutdan tovush”, “Oltin devor”, “Kelinlar qo‘zg‘oloni” spektakllari qahramonlarining xakteri ustida ishlash jarayoni tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: teatr, sahna, xarakter, xarakterlilik, satira, yumor, aktyor, rejissor, spektakl, obraz, dramaturg, janr.

Komediya – kulgu, handalar bilan to‘liq alohida badiiyat dunyosidir. Komediya – hayotda mavjud bo‘lgan kulgibop hodisalarni sahna vositasida bayon etadi. Komizm elementi garchi san’atning deyarli barcha janrlarida uchrasada, komediya janrining asl mehnatini belgilaydi.

XIX-asr rus komediyasi A.S.Griboyedovning “Aqillilik balosi”, N.V.Gogolning “Revizor”, “Uylanish” kabi mashhur asarlari yuzaga keldi. O‘zbek komediyasi ham xalq orasida muhallid, taqlid kabi janrlar sifatida juda uzoq zamonlardan mavjud edi. Bu narsa Hamza ijodida yaqqol ko‘rinadi. “Maysaraning ishi”, “Tuhmatchilar jazosi” kabi o‘zbek komediyalari bu janrga asos bo‘ladi. Komediyalar kulgining xarakteriga qarab hajviy va yumoristik turlarga bo‘linadi. Hamzaning “Maysaraning ishi”, A.Qahhorning “Og‘riq tishlar” kabi asarlari satirik komediya bo‘lsa, R.Bobojonning “Tog‘a-jiyanlar”, E.Vohidovning “Oltin devor”, Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni”, A.Qahhorning “Shohi so‘zana”, H.G‘ulomning “Toshbolta oshiq” kabi asarlari yumoristik komediya hisoblanadi [3, 56].

O‘zbek Milliy akademik drama teatrida o‘tgan asrning 1960-yillarida sahnalashtirilgan Abdulla Qahhorning «Tobutdan tovush», «Ayajonlarim» asarlari o‘sha davr uchun zamonaviy mavzuda yozilgan komediya bo‘lib, juda katta muvaffaqiyat bilan o‘ynaldi va bu asarlar tomoshabinlarning sevikli spektakllari bo‘lib qoldi.

1962-yilda sahnaga chiqqan «Tobutdan tovush»da muallif poraxo‘rlikni satira tig‘i bilan fosh etishda jiddiy ijtimoiy, ma’naviy masalalarni ko‘taradi. Pesa voqealari mansabdor, g‘oyat zamonaviy poraxo‘r Suxsurovning xonadonida bo‘lib o‘tadi. Poraxo‘rlikka qarshi kurashning keskinlashishi tufayli Suxsurov Qori, Yusup kabi hamtovoqlarini uyida kengashga to‘plab vaziyatdan qanday chiqish yo‘llarini muhokama qiladilar [4, 189].

O‘ta ustamon va ayyor Suxsurov xotini Netayxonning o‘gay ukasi, Mirzacho‘ddagi xo‘jaliklardan birida mexanik bo‘lib ishlovchi, urush qatnashchisi Obidjonni Toshkentga chakirib olib, xonadonidagi oqsoq xizmatkori Hojar ismli beg‘ubor qizga uylantirib, hovli-joyini ularning nomiga o‘tkazmoqchi bo‘ladi.

Dramaturg pesaning asosiy g‘oyasini ko‘rsatish uchun hayotiy ziddiyatlarni og‘zaki aks ettirmay, pesa qahramonlarning haqiqiy qiyofalarini ochib beruvchi o‘ta kulgili holatlar va voqealarni o‘ylab topgan. Har bir obraz betakror o‘z qiyofasiga ega. Ular harakatlari, qilayotgan ishlari bilan o‘zlarini o‘zlari fosh etadilar. Muallif har bir qahramonning ichki qiyofasini, shu bilan birga tipik belgilarini yorqin bo‘yoqlarda ko‘rsatishga katta yutuqlarga erishgan.

Spektaklni sahnalashtirgan rejissorlar A.Ginzburg, A.Turdiyev asar personajlari fe‘l-atvorini satira yo‘li bilan fosh qilishga harakat qilganlar.

Spektakl parda oddida muallif monologi bilan boshlanadi. Uni aktyor Olim Xo‘jayev ijro etgan. Muallif nomidan u spektaklning maqsadi poraxo‘rlikni fosh etish ekani anglatadi. Muallif nomidan bunday ijtimoiy illatga qarshi ochiqdan-ochiq kurashish lozimligini tomoshabinlarga qarata baralla aytadi.

Suxsurov rolini ijro etgan S.Tabibullayev poraxo‘r, tovlamachining satirik qiyofasini yaratgan. Aktyor o‘z qahramonining asl basharasini sahnadan sahnaga o‘tgan sayin to‘laroq ochib boradi [4, 192].

1970-yillarda T.Xo‘jayev tomonidan sahnalashtirilgan quvnoq, ibratomuz va o‘tkir yumorli “Oltin devor” spektakli 15 yil davomida sahnadan tushmadi. Rejissorning avvalgi spektakllariga xos bo‘lganidek, ushbu spektaklda uning milliy o‘ziga xoslikni, xalqimiz xarakteridagi betaqrar qirralarini yaxshi bilishligi seziladi.



Spektakl voqeasi aktyorlik san'atiga hamisha xos bo'lib kelgan yumor tuyg'usi hamda lirika va satira uyg'unligida rivojlanib boradi. 40 yil yonma-yon qo'shni bo'lib yashab kelgan, endilikda bir-birini yaxshi ko'rgan farzandlarining qalini tufayli urishib qolgan Mo'min va Abdusalomlar o'rtasidagi ziddiyat spektaklda hazilnamo o'zaro tortishuvlarda rivojlanadi. Abdusalom obrazi ATurdiyev ijrosida o'tkir satirik ruhda yaratilgan bo'lsa, Mo'min esa G'.A'zamov ijrosida o'zining yorqin ranglarga to'laligi bilan ajralib turadi [4, 210].

Mo'min tomonidan eski devordan topilgan xazina halol va sodda odamning yuragini murakkab tuyg'ularga to'ldiradi. Bu holat vijdonning nafs tuyg'ulari bilan olishuv jarayoni, ya'ni osmondan tushgan pul mojarosi aktyor tomonidan ajoyib ijro etiladi hamda spektaklda ko'pgina kulgili vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Pirovard natijada qahramonning "iztiroblari" orqada qolib, kekxa Mo'minning ma'naviy dunyosi g'olib chiqadi.

Ushbu spektaklda G'.A'zamovning komediyaga moyil iste'dodi yanada yorqinroq ko'zga tashlandi. Rejissorning aktyorga nisbatan qo'ygan talabi, ya'ni uning badihaviy ijrosiga bo'lgan ishonch to'la-to'kis oqlandi. O'tgan asrning 60-70-yillardagi salmoqli asarlardan iborat repertuar fonida ushbu spektakl xalq an'analari, uning yumorga moyil xislatlarini o'zlashtirish zarurligini yana bir karra isbotladi.

T.Xo'jayev o'zining mazkur so'nggi ishida rejissorlar va dramaturglarni xalqona an'alar sarchashmasidan baxramand qilishga chaqirgandek bo'ldi, shu bilan u tomoshabinlarning xalqchil yumorga bo'lgan muhabbati so'nmasligini, aktyorlarning esa yorqin komediyaviy xarakterlar yaratishga ishtiyoqi hamisha balandligini ta'kidladi. Hamisha ijodi xalq an'alar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yirik rejissorlarning o'z hayotini mana shunday avj nuqtada yakunlanganida chuqur ramz bor edi.

O'tgan asrning 70-yillarida Milliy teatr amaliyotida uzoq yillar davomida birinchi marta milliy an'alar, an'anaviy o'zbek teatri tajribasi, xalq tomoshalarining o'yin tabiatiga nisbatan rejissurada qiziqish namoyon bo'ldi [4, 416].

Bu jihatdan repertuarda Said Ahmad pesasi bo'yicha qo'yilgan "Kelinlar qo'zg'oloni" spektakli sezilarli o'rinni egallaydi. O'zining dastlabki dramaturgik tajribasida S.Ahmad o'zbek komediografiyasi, o'tmishdoshlari, jumladan, A.Qahhor izlanishlarini an'alarini ijodiy davom ettirishga harakat qildi.

1976-yilda sahnalashtirilgan "Kelinlar qo'zg'oloni" hayotiy materiali, syujeti, mavzui bo'yicha yangilik emas. Yangi kelinning qaynona uyiga kelib tushishi, eskicha qarashlarning zamona zayli bilan to'qnashuvi, bular barchasi A.Qahhorning "Ayajonlarim" pesasi bilan o'xshash. S.Ahmad yana ro'zg'ordagi patriarxal axloq ustidan kuladi, satirik fosh etishdan cheklanib, yengil hazil va beozor kulgiga o'tadi.

Pesa vorislik munosabatlarining an'alar bilan aloqasini fosh etadi, bu kulgili vaziyatlar o'tkirligida, presonajlar xarakteristikalari rang-barangligida, ishtirokchi shaxslar tili boyligi va shiradorligida, kompozitsiyaning oddiyligida namoyon bo'ladi.

"Kelinlar qo'zg'oloni"dagi ko'rinishlar o'tmish an'alar qattiq saqlanib qolgan xonadon ichida sodir bo'ladi. Eski Toshkentning tinch ko'chalarida joylashgan, yagona oila egasi kekxa Farmonbibi bo'lgan bu «maskan»ga Nigora ismli qiz kelin bo'lib tushadi. Eskilik rasm-rusumlaridan chiqmay yashab kelayotgan Farmonbibi barcha o'g'il va kelinlarining tumshug'idan ip o'tkazib olgan. Yettinchi kelinning qattiq qarshiligi bir so'zli qaynona o'rtasida ziddiyat keltirib chiqaradi.

Rejissor B.Yo'ldoshev dramaturg bilan birgalikda o'zlarini oilaviy-maishiy ziddiyat bilan chegaralab qo'ymaydi. Ular qaynona va kelin o'rtasida yuzaga kelgan tashqi to'qnashuvlarda axloqiy ziddiyatni ifodalashga harakat qilgan. Bir tomondan, o'z umrini yashab bo'lgan an'alar o'rtasidagi bu kurash o'z huquqini himoya qilishni anglatadi. Ikkinchi tomondan esa, bu turli axloqiy va ma'naviy tamoyillar to'qnashuvi hamdir [4, 218].

Biroq mavzuning bunday talqini teatr sahnasida oddin ham yuz bergandi. S.Ahmad teatr bilan birgalikda xalq an'alarida, urf-odatlarida ularning qimmatli asosini qidirib topishga, bir avloddan boshqasiga o'tib kelayotgan yaxshi rasm-rusumlar hayotiyli va kuchini ochib berishga harakat qilgan, o'zidagi ma'naviy go'zallik quvvatini namoyon etgan.

Rejissor B.Yo'ldoshev xalq ijodiyoti boyligidan foydalanadi, ko'rinishlar to'qimasiga badihani, buffonadani olib kiradi. Aktyorlik ijrosi qo'l harakatlari, tovush ohanglarining maromlilik, musiqiyligi bilan ajralib turadi. Doiralar baka-bumi har bir personajni alohida xarakterlaydi. Ular goh ulug'vor va istehzoli, goh o'ta sho'x, goh g'oyat tinch va osuda holatlar kasb etadilar. Eng



asosiysi esa, sahnadagi aktyorlar hayoti biron-bir zo‘rakilikdan xoli, ular bermalol, tabiiy holda harakat kiladilar [4, 220].

Xulosa sifatida qayd etish lozimki, tarixiy asarlarda xarakter yaratishda personajning ichki dunyosiga katta e‘tibor qaratish, hajviy asarlarda xarakter yaratishda personajning ichki dunyosidan kelib chiqib obrazning tashqi jihatlariga e‘tibor qaratish amaliyotda o‘z ifodasini topgan;

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000. – 288 b.
2. Ikromov H. Davr va teatr. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2009.
3. Islomov T. Tarix va sahna. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1998.
4. Rahmonov M., Muxtarov E., To‘laxo‘jayeva M. O‘zbek Milliy akademik drama teatri tarixi. – Toshkent: 2003.

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 12-ҚИСМ

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.05.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
